SANOAT SOTSIOLOGIYASINING VUJUDGA KELISHI. XOTORN TAJRIBASI

Matchanova Madinabonu Timur qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Psixologiya va Sotsiologiya kafedrasi sotsiologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.
m946331181@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20044399

Annotatsiya: Sanoat sotsiologiyasi zamonaviy jamiyatda ishlab chiqarish jarayonining ijtimoiy tomonlarini o‘rganadigan muhim ilmiy yo‘nalishdir. Ushbu fan sanoatlashgan jamiyatda mehnat munosabatlari, ishchi xulqi, tashkilot ichidagi ijtimoiy tuzilma, rahbarlik uslublari va motivatsiya masalalarini tahlil qiladi. Mazkur maqolada sanoat sotsiologiyasining vujudga kelish jarayoni, uning tarixiy ildizlari va nazariy asoslari yoritilgan. Shuningdek, XX asr boshida AQShda o‘tkazilgan Xotoron tajribasi - Hawthorne experiments chuqur tahlil qilinadi. Ushbu tajriba inson omilining ishlab chiqarish samaradorligidagi o‘rnini tubdan o‘zgartirib, va zamonaviy boshqaruv va tashkilot nazariyalarining shakllanishiga asos bo‘lgan.
Kalit so‘zlar: Sanoat sotsiologiyasi, ishlab chiqarish jarayoni, ijtimoiy tomonlar, mehnat munosabatlari, ishchi xulqi, tashkilot ichidagi ijtimoiy tuzilma, rahbarlik uslublari, motivatsiya, Xotoron tajribasi

Abstract: Industrial sociology is an important scientific direction that studies the social aspects of the production process in modern society. This science analyzes issues of labor relations, worker behavior, social structure within the organization, leadership styles and motivation in an industrialized society. This article covers the process of the emergence of industrial sociology, its historical roots and theoretical foundations. It also deeply analyzes the Hawthorne experiment, which was conducted in the USA at the beginning of the 20th century. This experiment fundamentally changed the role of the human factor in production efficiency and laid the foundation for the formation of modern management and organizational theories.
Keywords: Industrial sociology, production process, social aspects, labor relations, worker behavior, social structure within the organization, leadership styles, motivation, Hawthorne experiment

Аннотация: Индустриальная социология важное научное направление, изучающее социальные аспекты производственного процесса в современном обществе. Эта наука анализирует вопросы трудовых отношений, поведения рабочих, социальной структуры внутри организации, стилей лидерства и мотивации в индустриальном обществе. В данной статье рассматривается процесс возникновения индустриальной социологии, её исторические корни и теоретические основы. Также проводится углублённый анализ Хоторнских экспериментов, проведённых в США в начале XX века. Этот эксперимент коренным образом изменил роль человеческого фактора в повышении эффективности производства и заложил основу для формирования современных теорий управления и организации.
Ключевые слова: Индустриальная социология, производственный процесс, социальные аспекты, трудовые отношения, поведение рабочих, социальная структура внутри организации, стили лидерства, мотивация, Хоторнский эксперимент

Kirish. Sanoat sotsiologiyasi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sanoat inqilobi natijasida vujudga kelgan fan sifatida shakllandi. Sanoat inqilobi insoniyat tarixida eng katta iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlardan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish tizimini butunlay o‘zgartirdi. Oldingi davrlarda ishlab chiqarish asosan qo‘l mehnatiga asoslangan edi. Har bir mahsulot alohida

hunarmand tomonidan tayyorlanar edi. Ammo sanoat inqilobi bilan birga mashinalar, fabrikalar va yirik ishlab chiqarish korxonalari paydo bo‘ldi. Bu esa ishlab chiqarish hajmini keskin oshirdi, lekin yangi ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirdi[1]. Eng muhim o‘zgarishlardan biri ishchilar sinfining shakllanishi bo‘ldi. Ishchilar fabrikalarda uzoq soat davomida, og‘ir sharoitlarda ishlashga majbur bo‘ldilar. Ish haqi past, mehnat sharoiti esa juda og‘ir edi. Bu holat ishchilar noroziligini kuchaytirdi va kasaba uyushmalari shakllanishiga olib keldi. Dastlab iqtisodchilar va muhandislar ishlab chiqarish samaradorligini faqat texnik omillar bilan izohlashdi. Frederik Teylor tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy boshqaruv nazariyasi shuni taklif qildiki, mehnat jarayonini mayda qismlarga bo‘lish, ish vaqtini aniq hisoblash va qat’iy nazorat orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Biroq bu yondashuv ishchilarning psixologik holati va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olmadi. Natijada ishchilarda charchoq, norozilik va motivatsiya pasayishi kuzatildi. Shu sababli yangi ilmiy yondashuv - sanoat sotsiologiyasi shakllandi. Bu fan insonni faqat iqtisodiy mavjudot emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham o‘rganishni boshladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sanoat sotsiologiyasi sanoatlashgan jamiyatda ishlab chiqarish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadigan fan hisoblanadi. Uning shakllanishi bir nechta klassik nazariy yondashuvchilarga tayanadi. Ular ichida Karl Marks, Maks Veber va Frederik Teylor qarashlari eng muhim hisoblanadi. Karl Marks jamiyatni iqtisodiy sinflar o‘rtasidagi ziddiyat sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, kapitalistik tizimda ishlab chiqarish vositalari ozchilik qo‘lida bo‘ladi, ishchilar esa o‘z mehnatini sotishga majbur. Bu holat ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi[2]. Marks sanoat munosabatlarini konfliktli jarayon sifatida tushuntiradi va ishchi hamda kapitalist o‘rtasidagi qarama qarshilikni asosiy masala deb hisoblaydi. Maks Veber tashkilotlarni ratsional tizim sifatida ko‘radi. Uning fikricha, har bir tashkilot aniq qoidalar, lavozimlar ierarxiyasi va rasmiy boshqaruv asosida ishlashi kerak[3]. Veberning byurokratiya nazariyasi zamonaviy boshqaruv tizimlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U tashkilot samaradorligi tartib va qonuniylikka bog‘liq deb hisoblaydi. Frederik Teylor ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun ilmiy boshqaruv nazariyasini ishlab chiqdi. U ish jarayonini mayda qismlarga bo‘lish, har bir jarayonni vaqt bo‘yicha o‘lchash va qat’iy nazorat qilish orqali ishlab chiqarishni oshirish mumkinligini ta’kidlagan. Biroq bu yondashuvda insonning psixologik va ijtimoiy jihatlari yetarli darajada hisobga olinmagan. Xotoron tajribasi sanoat sotsiologiyasida birinchi yirik empirik tadqiqotlardan biri bo‘lib, inson omilini ishlab chiqarish samaradorligining asosiy elementi sifatida ko‘rsatadi[4]. Tadqiqotda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanilgan: Eksperimental usuli: ish sharoitlari (yorug‘lik, ish vaqti, dam olish tartibi) o‘zgartirilib, ish unumdorligiga ta’siri o‘rganilgan. Bu usul orqali fizik sharoitlar har doim ham asosiy omil emasligi aniqlangan. Kuzatuv metodi: shchilarning kundalik faoliyati bevosita kuzatilgan. Bu usul orqali ularning xulqi, o‘zaro munosabatlari va guruh ichidagi harakatlari tahlil qilingan. Intervyu metodi: ko‘plab ishchilar bilan suhbatlar o‘tkazilgan. Bu orqali ularning ishga munosabati, rahbarga qarashlari va ruhiy holati o‘rganilgan. Statistik tahlil: olingan ma’lumotlar solishtirilib, ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar aniqlangan. Guruh tahlili: ishchilar o‘rtasidagi norasmiy guruhlar va ularning ichki qoidalari o‘rganilgan. Bu guruhlar ish unumdorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash edi.

Muhokama. Sanoat sotsiologiyasining vujudga kelib shakllanishi bir necha tarixiy omillar bilan bog‘liq: Birinchidan, sanoat inqilobi ishlab chiqarish tizimini tubdan o‘zgartirdi. Mashinalar qo‘l mehnatini siqib chiqardi va yirik fabrikalar paydo bo‘ldi. Bu esa ishchi sinfining shakllanishiga olib keldi. Ikkinchidan, yangi ijtimoiy muammolar paydo bo‘ldi. Ishchilar uzoq vaqt ishlashga majbur bo‘ldi, ish sharoitlari og‘ir edi, ish haqi esa past edi. Bu holat ijtimoiy norozilikni kuchaytirdi. Uchinchidan, ilmiy boshqaruv tizimi (Teylorizm) ishlab chiqarishni

oshirgan bo‘lsa ham, inson omilini hisobga olmagani uchun muammolar orqali yuzaga keldi. Ishchilar o‘zlarini mexanik tizimning bir qismi sifatida his qila boshladilar. Shu sababli olimlar inson omiliga asoslangan yangi yondashuvni ishlab chiqishga harakat qildilar. Natijada sanoat sotsiologiyasi shakllandi. Xotoron tajribasi 1924–1932 yillarda AQShdagi Western Electric kompaniyasining Hawthorne zavodida o‘tkazilgan. Tadqiqotga Elton Mayo va uning hamkasblari rahbarlik qilgan. Tajribaning asosiy maqsadi ish unumdorligiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash edi[5]. Dastlab olimlar yorug‘lik, ish vaqti va jismoniy sharoitlar asosiy omil deb hisoblashgan. Birinchi bosqich - yorug‘likni o‘zgartirish orqali ish unumdorligi o‘rganildi. Natija kutilgandek bo‘lmadi, yorug‘lik oshsa ham, kamaytirilsa ham unumdorlik o‘sib bordi. Bu fizik omillar yetarli emasligini ko‘rsatdi. Ikkinchi bosqich - kichik guruh ajratilib, ularga qulay sharoit yaratildi. Ishchilar o‘zlarini muhim deb his qila boshladi va unumdorlik oshdi. Uchinchi bosqich - yigirma mingdan ortiq ishchi bilan intervyu o‘tkazildi[6]. Natijada ishchilar uchun eng muhim omil pul emas, balki e’tibor, hurmat va ijtimoiy muhit ekanligi aniqlandi. To‘rtinchi bosqich - norasmiy guruhlar o‘rganildi. Ishchilar o‘z ichida yozilmagan qoidalar yaratgani ma’lum bo‘ldi. Masalan, juda tez ishlamaslik yoki guruhdan ajralib chiqmaslik kabi. Tadqiqotning eng muhim natijasi shundan iboratki, odamlar kuzatilayotganini bilganida o‘z xulqini o‘zgartiradi va yaxshiroq ishlaydi. Bu hodisa Hawthorne effekti deb ataladi[7]. Ish samaradorligi faqat texnika bilan emas, inson psixologiyasi bilan ham bog‘liq, guruh ta’siri juda kuchli, rahbar munosabati muhim ro‘l o‘ynaydi, ish joyi ijtimoiy tizim hisoblanadi.

Natija. Xotoron tadqiqotlari sanoat sotsiologiyasi rivojlanishida juda muhim natijalarni berdi va ishlab chiqarish jarayoniga bo‘lgan qarashlarni tubdan o‘zgartirdi. Ushbu tadqiqotlar asosida yangi ilmiy yo‘nalish - “Insoniy munosabatlar maktabi” (Human Relations School) shakllandi. Bu yo‘nalish ishlab chiqarish jarayonida inson omilini asosiy o‘ringa qo‘yadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishchilarning mehnat unumdorligi faqat texnik sharoitlar yoki ish haqi bilan emas, balki ularning ruhiy holati, guruh ichidagi munosabatlari va rahbariyat bilan aloqasiga ham kuchli bog‘liq ekan. Shu asosda quyidagi muhim ilmiy xulosalar shakllandi: Menejmentda psixologik omillar kuchaydi - rahbarlar endi faqat nazorat emas, balki ishchilarning ruhiy holatini ham hisobga oladigan bo‘ldi. HR (inson resurslari) tizimi rivojlandi - ishchilarni boshqarishda motivatsiya, rag‘bat va ijtimoiy ehtiyojlar muhim omilga aylandi. Tashkilot ichidagi kommunikatsiya ahamiyati oshdi - ishchi va rahbar o‘rtasidagi ochiq muloqot samaradorlikni oshirishi aniqlandi[8]. Motivatsiya nazariyalari shakllandi - puldan tashqari, e’tibor, hurmat va guruhga tegishlilik ham muhim motivatsiya omillari ekanligi isbotlandi.

Xulosa. Sanoat sotsiologiyasi sanoatlashgan jamiyat sharoitida ishlab chiqarish jarayonini faqat texnik yoki iqtisodiy tizim sifatida emas, balki inson omili bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy jarayon sifatida o‘rganadigan fan sifatida shakllandi. Ushbu fan rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ishchilarning faqat mehnat kuchi emas, balki ularning psixologik holati, ijtimoiy munosabatlari va jamoa ichidagi o‘rni ham muhim ro‘l o‘ynashi aniqlandi. Xotoron tajribasi sanoat sotsiologiyasi tarixida burilish yasagan eng muhim tadqiqotlardan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayonida inson omilining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishchilarning mehnat unumdorligi nafaqat ish sharoiti yoki texnik imkoniyatlarga, balki ularning e’tibor, hurmat, guruhga tegishlilik hissi va rahbar bilan munosabatlariga ham bevosita bog‘liq hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy boshqaruv tizimlarida inson resurslarini boshqarish (HR), motivatsiya tizimlari va samarali kommunikatsiya strategiyalari alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda yirik korporatsiyalar va tashkilotlar Xotoron tajribasi natijalariga tayangan holda xodimlar bilan ishlash, ularni rag‘batlantirish va ijtimoiy muhitni yaxshilashga katta e’tibor qaratmoqda. Umuman olganda, sanoat sotsiologiyasi va Xotoron tajribasi zamonaviy menejment

va tashkilot boshqaruvi fanining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jiyanmuratova Gulnoz. Sotsiologiya tarixi.-T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.- 466 b
2. Marks K. “Kapital”, Moskva, 1867-yil.
3. Veber M. “Iqtisodiyot va jamiyat”, Germaniya, 1922-yil.
4. Mayo E. “Sanoat sivilizatsiyasining insoniy muammolari”, Boston, 1933-yil.
5. Gillespi R. “Bilim ishlab chiqarish: Xotoron tajribalari”, Kembrij universiteti nashri, 1991-yil.
6. Rötlisberger F., Dikson V. “Boshqaruv va ishchi”, Garvard universiteti nashri, 1939-yil.
7. “Xotoron tadqiqotlari”, Britannica ensiklopediyasi, onlayn nashr, 2023-yil.
8. “Sanoat sotsiologiyasi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami”, Google Scholar ma’lumotlari asosida, 2000–2024-yillar.